



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTOR V.V.  
B.INING  
BUYRUG‘I**

2024 yil “12” fevral 01533-edo - son

**Yoshlar akademiyasi forumining Toshkent tibbiyot akademiyasi bosqichini  
tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-sentyabrdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-6309-sonli farmoni va 2019-yil 6-maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi “Ilmiy–innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 24-sonli qarori, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-avgustdagi “Talaba va yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish tadbirlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 351-sonli buyrug‘i va 2024-yil 22-yanvardagi 3/15-7-1-sonli ko‘rsatma xatida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-avgustdagi “Talaba va yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish tadbirlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 351-sonli buyrug‘iga ilova qilingan yillik kalendar rejaning 3-bandi va 2024-yil 22-yanvardagi 3/15-7-1-sonli ko‘rsatma xatiga ilova qilingan yarim yillik kalendar rejaning 35-bandiga muvofiq 2024-yil 12-15 fevral kunlari Yoshlar akademiyasi forumining Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda-TTA) bosqichi TTAda taxsil oluvchi bakalavriyat va magistratura talabalari hamda doktorantlari ishtirokida o‘tkazilsin.

2. Yoshlar akademiyasi forumiga tayyorgarlik ko‘rish, tashkillashtirish va uni o‘tkazish uchun mas’ul etib Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i F.B.Abdumalikova va TTAning Yoshlar akademiyasi liderlari belgilansin.

3. TTAda o‘tkaziladigan Yoshlar akademiyasi forumi doirasida malakali spiker va mentorlar tomonidan yosh olimlarning Start-up va ilmiy-innovatsion loyihalarni rivojlantiruvchi Yoshlar akademiyasining “Bo‘lajak olim” va “Mirzo Ulug‘bek vorislari” respublika tanlovlari hamda “Akademik harakatchanlik” dasturi; nufuzli xorijiy nashrlar va xalqaro grant loyihalarga doir “English for Science” treyning dasturi; “Yoshlar akademiyasi liderlari” faoliyati targ‘ibotiga doir seminarlar tashkil etilsin;

4. Quyidagilar:

Yoshlar akademiyasi forumining TTA bosqichini o‘tkazish dasturi 1-ilovaga muvofiq,  
Yoshlar akademiyasi forumining TTA bosqichi doirasidagi seminarlarga jalb etilgan malakali spiker va mentorlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq,

Yoshlar akademiyasi forumining TTA bosqichini o'tkazishda tashkiliy ko'mak ko'rsatish bo'yicha jalb qilinayotgan TTA talabalari ro'yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**5.** Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i M.A.Xasanova, Iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, Magistratura va klinik ordinatura bo'limi boshlig'i A.A. Imamov, barcha fakultet dekanlari, kafedra mudirlariga va TTAning Yoshlar akademiyasi liderlari:

TTAda faoliyat yuritayotgan barcha professor-o'qituvchilari hamda bakalavriyat va magistratura bosqichi talabalari, doktorant va mustaqil izlanuvchilar mazkur buyruq bilan tanishtirilsin;

mazkur buyruq ilovalarida keltirilgan ro'yxatlar bo'yicha Yoshlar akademiyasi forumi marafonida ishtirok etishi ko'rsatilgan TTA xodimlari, doktorantlar va talabalarining ishtiroki ta'minlansin;

Yoshlar akademiyasi forumi TTA bosqichini o'tkazish bo'yicha tashkiliy ko'mak ko'rsatish bo'yicha jalb qilinayotgan TTA talabalari ro'yxati ilovaga muvofiq forum o'tkazilish sanasi uchun o'rtacha reyting ballari qo'yib berilishi ta'minlansin.

**6.** Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musaxonov tomonidan Yoshlar akademiyasi forumini ochilish marosimi, seminar treninglar va taqdimotlarni o'tkazish jarayonida dasturiy ta'minot to'liq ta'minlab borilsin.

**7.** Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I. Do'stmurodov, Bosh buxgalter B.I.Alijanova va Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'aipovlar tomonidan Yoshlar akademiyasi forumining TTA bosqichi doirasidagi seminarlarga jalb etilgan malakali spiker va mentorlar hamda ishtirokchilarga tashakkurnoma va sertifikatlar tayyorlash hamda esdalik sovg'alar bilan bog'liq bo'lgan barcha sarf-harajatlar TTAning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi ta'minlansin.

**8.** Matbuot kotibi G.T.Mirzayeva iqtidorli talabalar bilan ishlashning muhim tarbiyaviy ahamiyatini e'tiborga olib, Yoshlar akademiyasi forumi TTA bosqichiga doir ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari hamda TTAning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarida yoritilsin.

**9.** Iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikovaga:

Yoshlar akademiyasi forumi TTA bosqichi yakunlanganidan so'ng unga oid ma'lumotlar 5 (besh) kun muddat ichida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limiga hisobot topshirilsin;

**10.** Mazkur buyruqning ijrosini ta'minlash Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova zimmasiga yuklatilsin.

**Rektor v.v.b.**



**Sh.Boymuradov**

**Buyruq kelishuvi**

**Tayyorladi:**

**F.Abdumalikova**

**Bo'lim boshlig'i**

**Kelishildi:**

**F.Azizova**

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor**

**T.Bobomuratov**

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar  
bo'yicha prorektor**

**Z.Muminova**

**Bo'lim boshlig'i**

**M.Xasanova**

**Bo'lim boshlig'i**

**S.Dustmuradov**

**Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor**

**B.Alijonova**

**Bosh buxgalter**

**O.G'aipov**

**Bo'lim boshlig'i**

**G.Mirzaeva**

**Matbuot hizmati bosh mutahassisi**

**A.Musaxonov**

**Markaz rahbari**

**S.Yusupova**

**Bo'lim boshlig'i**